

TALABALARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH
TEXNOLOGIYALARI

Hamroev Kamol Qahramonovich

Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari, shu jamiyatni qurishga faol ishtirok etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan va unga sodiq, iymon-e'tiqodli, teran aql egasi, pok axloqli, o'z haq-huquqlari, burch va mas'uliyatini chuqur anglaydigan insonlarni tarbiyalash hamda vatanni sevish, ardoqlash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: vatan, yurt, millat, kelajak, yoshlar, ta'lim, tarbiya.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, unda mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo'yicha burch tuyg'usini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Milliy istiqlol g'oyasi yoshlarni ma'naviyatli etib tarbiyalashning asosiy negizi sanaladi. Shuningdek, yoshlarni haqiqiy vatanparvar bo'lish, ona-Vatanga cheksiz mehr-muhabbatni qaror toptirish, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishda eng olijanob ishlarda faol qatnashishga undaydi.

Talaba shaxsini rivojlantirish, barkamol insonni voyaga yetkazishda ularning ma'naviy-axloqiy shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, millat va ona-Vatan oldidagi burch, mas'uliyatni teranroq anglashga harakat qiladi. Ya'ni, ma'naviy-axloqiy yetuklik shaxsdagi bunyodkorlik g'oyalarini yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydigan va komillikka yetaklaydigan aniq maqsaddir.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 1981 yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug'ilib o'sgan o'liasi, shahri yoki qishlog'i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa, vatan tushunchasiga shunday ta'rif keltiriladi: Vatan - kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiatni, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi". Har qanday ishda vatanparvarlik hissi namoyon bo'lishi kerak. Darhaqiqat, vatan bir kishining mulki emas, u o'tib ketgan ajdodlar yurti, o'sib-ulg'ayayotgan farzandlarimiz, kelajakda dunyoga keladigan avlodlarning mulki - vatan shu yurtda yashab turgan harbirimizning mulkimizdir. Demak, yer yuzida millat uchun vatan mavjud ekan, xalqda vatan tuyg'usi doimo, barcha davrlarda mavjud bo'laveradi. Bir so'z bilan aytganda vatanparvarlik o'z ona Vatani uchun jonbozlik ko'rsatishidir. Bunday jonbozlik esa yoshlarda ta'lim jarayonida singdiriladi.

VOLUME-2, ISSUE-5

Yangi O‘zbekiston davlati taqdirini o‘z qo‘liga olib, yangi hayot, jamiyat qurishga, kelajagini jahon hamjamiyatining uzviy bir qismi sifatida tashkil etishga kirishdi. Zahmatkash xalqimiz o‘zining fidoiy mehnati bilan dunyoda hech kimdan kam bo‘lmay, taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olib, tinch, farovon va osuda hayot kechirishga haqlidir. Lekin bu yo‘l juda murakkab yo‘l bo‘lib, u jamiyat a’zolaridan fidoyilik, vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ulari ustuvor bo‘lishini talab qiladi. Buning uchun jamiyat hayotining ertangi kunini yaratadigan yoshlarda xuddi mana shu tuyg‘ularni shakllantirish zarur.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab, ijod etgan mutafakkirlar o‘z asarlarida yoshlar tarbiyasiga, vatanparvarlik, tuyg‘usini kamol toptirishga alohida e’tibor bergenlar. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Farobi, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Muslihiddin Sadiy, Imom Ismoil al-Buxoriy kabi buyuk zotlar Vatan obodligi, yurt farovonligi uchun tinmay jonbozlik ko‘rsatganlar va o‘z zamondoshlarini ham shunga da’vat qilganlar.

Istiqlol Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy va ma’naviy takomilligining barcha sohalari rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga adabiyot va adiblar oldiga ulkan ma’suliyatli vazifalarni qo‘ydi. O‘sib kelayotgan yosh avlod elim, yurtim deb yashashi, vatanimizning gullab-yashnashi buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalanishi ko‘p jihatdan ta’lim-tarbiya jarayoniga bog‘liq. Ushbu ulkan ishlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi qonun va farmonlarga ko‘ra ta’limning mazmuni va boshqaruvini milliy qadriyatlar, tarixiy, ma’naviy tarbiyaga mos tarzda tanlash va tashkil etish zarurati qo‘yildi.

Ma’lumki, xalqimizning kelajagi, mamlakatning istiqboldagi taraqqiyoti farzandlarimizning qanday rivojlanishiga bog‘liq.

Hozirgi zamon jamiyat taraqqiyoti sharoiti tarbiya natijasida va samaradorligi inson tomonidan madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy tajriba qanchalik o‘zlashtirilayotgani va qayta ishlab chiqarilayotgani bilan emas, balki jamiyat a’zolarining o‘tmishdagи avlodlar tajribasida o‘xshashi bo‘lmagan vazifalarni qo‘yish va hal etishiga imkon beradigan ongli faoliyit hamda mustaqil ijodi faoliyatga tayyorligi bilan belgilanadi.

XXI asr globallashuv, taraqqiyot asri, faqat intellektual jihatdan yuksak rivojlangan davlatlarga dunyoda ustuvor mavqe egallaydigan davr bo‘lishi barchamiz uchun ayon.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ma’naviyatning asosiy tushunchalar izohli lug‘ati/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. - Toshkent: G‘.G‘ulom, 2009. - 760 b.
2. Nishanova S. Yoshlar tarbiyasining ma’naviy ildizlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – 186 b.
3. Olimov Sh.Sh. “Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari”- T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2015 y. -228 b
4. Olimov T.H. Bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini pedagogik loyihalashtirish tizimini rivojlantirish. P.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozil. Disser. – Buxoro. 2021. – 130 b.